

***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***  
**COVID-19 VIRUSINING AYIRUV A'ZOLARIGA TA'SIRI**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi,  
davolash fakulteti 410-guruh talabasi*  
***Muxametboyev Akbarjon Ravshan o'g'li***

***Annotatsiya.*** O'tkir respirator virusli infeksiyalar – viruslar qo'zg'atadigan, kelib chiqishi bir-biriga o'xshash o'tkir infeksiyon kasalliklarning umumiy guruhi hisoblanadi. Ular asosan nafas yo'llari shilliq pardalariga zarar yetishi bilan kechadi. O'tkir respirator kasalliklarning qo'zg'atuvchilariga adenoviruslar, paragripp viruslari, koronaviruslar, rinoviruslar va boshqa viruslar guruhi kiradi. Ana shunday virusli infeksiyalardan biri 2019-yil dekabr oyida Xitoyning Xubey provinsiyasi Uxan shahrida kelib chiqishi noma'lum pnevmoniya epidemiyasi ya'ni koronavirus kasalligi (COVID-19) qayd etilgan edi. COVID-19 ning global miqyosda tarqalishi va ushbu kasallik tufayli minglab insonlarning o'limi tufayli Jahon sog'liqni saqlash tashkilotini 2020-yil 12-martda pandemiya deb e'lon qilishiga olib keldi. O'zbekistonda virusni yuqtirish holati dastlab 2020-yil 15-mart kuni qayd etildi. Bugungi kunga qadar butun dunyo mamlakatlari bu pandemiyadan katta zarar ko'rdi. Jumladan, qashshoqlikning ortishi, dunyodan ko'z yumgan insonlar hayoti va iqtisodiy qoloqliklar bunga yaqqol misoldir.

***Kalit so'zlar:*** COVID-19, pandemiya, PCR testi, antigen testi, SARS-CoV-2, karantin, izolyatsiyaga olish;

Yangi koronavirus SARS-CoV-2 paydo bo'lgandan beri olimlar uning kelib chiqishi haqida bahslashishmoqda. SARS-CoV-2 laboratoriya manipulatsiya mahsuloti ekanligi tahmin qilingan. Biroq, genetik ma'lumotlar bu farazni qo'llab-quvvatlamaydi va SARS-CoV-2 ilgari ma'lum bo'lgan virus genetik tuzilmasidan kelib chiqmaganligini ko'rsatdi. O'tkir respirator sindromli koronavirus 2 (SARS-CoV-2) 2020-yil yanvar oyida Xitoyning Xubey provinsiyasi Uxan shahrida

topildi. Shundan keyin ushbu virus butun dunyo mamlakatlari bo'ylab tarqaldi va uni 527 000 000 kishi yuqtirgan va 6 028 000 kishining o'limiga olib keldi. O'zbekistonda esa 239 000 ta kasallanish holati aniqlangan, shundan 1637 ta fuqaro vafot etgan. Hozirgi koronavirus kasalligi butun dunyo bo'ylab favqulodda holat hisoblanadi, chunki uning tarqalish tezligining yuqoriligi va yuqori o'lim darajasi jiddiy buzilishlarni keltirib chiqardi. Dunyo bo'ylab COVID-19 qo'zg'atuvchisi bo'lgan og'ir o'tkir respirator sindromli koronavirus 2 (SARS-CoV-2) bilan kasallanganlar soni tez sur'atlar bilan o'sdi. COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda asosan pnevmoniya, o'tkir respirator distress sindromining og'ir belgilari va ko'p a'zolar yetishmovchiligi rivojlanishi mumkin.

**2019-yil [koronavirus](#) infeksiyasi (COVID-19) — [SARS-CoV-2](#),** ya'ni og'ir o'tkir nafas olish sindromi [koronavirusi](#) 2 keltirib chiqaradigan yuqumli kasallik.<sup>[1]</sup> Kasallik ilk marotaba 2019-yilda [Xitoyning Uxan](#) shahrida aniqlandi va global miqyosda tarqalib, [2019–2020-yillardagi koronavirus pandemiyasini](#) keltirib chiqardi.<sup>[2][3]</sup> Kasallik yuqori harorat, yo'tal hamda nafas olishni mushkullashishi kabi simptomlarni keltirib chiqaradi. Ayrim holatlar mushaklar og'rishi, balg'am ajralishi hamda tomoq og'rishi kuzatiladi. Virus yuqtirganlarning aksarida yengil simptomlar yuzaga kelsa-da, ayrim bemorlarda kasallik og'ir [pnevmoniya](#) hamda bir necha organ faoliyatining ishdan chiqishiga olib keladi. Diaqnoz qo'yilgan holatlar orasida o'limlar ko'rsatkichi o'rtacha 3,4 foizni tashkil qiladi. 20 yoshga to'lmaganlar orasida bu ko'rsatkich 0,2 foizni, 80 yoshdan o'tganlar orasida 15 foizni tashkil qiladi. COVID-19 koronavirus infeksiyasi odatda shaxsdan-shaxsga yo'tal va aksa berish davomida chiqariladigan tomchilar orqali yuqadi. Virusni yuqtirgandan keyin kasallik simptomlar yuzaga kela boshlagunicha o'rtacha 5 kun o'tadi. Bu davr 2 kundan 14 kungacha davom etishi mumkin. Tashxis qo'yishning standart uslubi burun bo'shlig'i yoki tomoqdan olingan suyuqlikni teskari transkripsiyali polimeraza zanjiri reaksiyasi (inglizcha: *Reverse transcription polymerase chain reaction (rRT-PCR)*) yordamida tekshirishdan iborat. Shuningdek, bemorga simptomlar, risk unsurlari

hamda pnevmoniya belgilarini aniqlash uchun kompyuter tomograf yordamida tashxis qo'yish mumkin.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti SARS-CoV-2 koronavirusi ko'rshapalaklardan odamga boshqa hayvon orqali yuqqan paytda paydo bo'lganini ma'lum qildi. tadqiqotchilar koronavirus paydo bo'lishi bilan bog'liq 4 ta taxminni ehtimollik ko'rsatkichi bo'yicha ro'yxatlagan. Ularning orasida koronavirusning ko'rshapalaklardan odamga boshqa hayvon orqali yuqqan paytida paydo bo'lganligiga asosiy e'tibor qaratilgan. Virusning ko'rshapalaklardan odamlarga to'g'ridan-to'g'ri uzatilishi nisbatan past darajada baholangan bo'lsa, oziq-ovqat hamda laboratoriyadan tarqalish taxmini ehtimoldan yiroq qarash sifatida qayd etilgan.

COVID-19'ni keltirib chiqaradigan virusning eng yaqin qarindoshi ko'rshapalaklardan topilgan. Ammo, hisobotda aytilishicha, ko'rshapalaklarda aniqlangan viruslar va SARS-CoV-2 o'rtasidagi evolyusion masofa bir necha o'n yilliklarga teng bo'lib, bu, o'z navbatida, virusning ulardan tarqalmaganini ko'rsatadi.

Agentlikning alohida qayd etishicha, tadqiqot natijalari kutilganidek bo'lib chiqqan va ko'plab savollarni javobsiz qoldirgan. Mutaxassislar guruhi „laboratoriyadan kelib chiqish“ haqidagi gipotezadan tashqari barcha taxminlar borasida qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazishni taklif qilgan.

Buyuk Britaniyada 2021-yil mart oyidan ko'ngillilar orasida SARS-CoV-2 koronavirusining organizmga ta'sirini o'rganish dasturi — «Human Challenge Program» doirasidagi tibbiy tadqiqotlar boshlandi. Hukumat ushbu tadqiqot ko'ngillilarga SARS-CoV-2 koronavirusi ataylab yuqtirilgan dunyodagi birinchi izlanish ekanligini ta'kidlagan. Uning maqsadi COVID-19'ga qarshi vaksinalar va ushbu kasallikni davolash usullarini takomillashtirish hamda rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Birinchi ko'ngillilar guruhi bilan koronavirus xususiyatlarini o'rganayotgan Londonning «Royal Free Hospital» kasalxonasi mutaxassislari ish olib borgan.

Tadqiqot ishtirokchilariga koronavirus xavfsiz hamda doimiy nazorat ostida bo'ladigan muhitda yuqtirildi. Ishtirokchilar shifokorlar va mutaxassislarning uzluksiz kuzatuviga olingan.

Izlanish davomida inson immunitet tizimining Sars-CoV-2 virusiga qanday javob qaytarishini va virus yuqtirilgan bemor uning zarralarini qanday atrofga tarqatishini aniqlash ko'zlangan. Sog'lom ko'ngillilar orasida bu kabi tadqiqot gripp va bezgakka qarshi vaksinalarni ishlab chiqishda ham o'tkazilgan. Ammo ushbu tadqiqotdan farqli tomoni shundaki, ushbu sinovlarning ishtirokchilari dastlab tegishli vaksina bilan emlangan<sup>[18]</sup>.

Oldini olish va boshqarish[tahrir | manbasini tahrirlash]

Infeksiya oldini olish uchun qo'llarni tez-tez yuvish, boshqalardan uzoqroq masofada bo'lish hamda yuzni qo'llar bilan ushlamaslik tavsiya qilinadi.<sup>[19]</sup> Niqoblardan foydalanish esa hamma uchun emas, balki virusni yuqtirganini shubha qilayotganlar hamda ularga qarayotganlargagina tavsiya qilinadi. Ayni damda COVID-19 ga qarshi vaksina yoki preparat bor . Kasallikni boshqarish simptomlarni davolash, izolyatsiya hamda eksperimental choralardan iborat.

Epidemiologiyasi va tarixi[tahrir | manbasini tahrirlash]

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti 2019–20-yilgi koronavirus epidemiyasini pandemiya hamda xalqaro sog'liqni saqlash favqulodda holati (inglizcha: *Public health emergency of international concern (PHEIC)*) deya belgiladi. Jahon bo'ylab virusning mahalliy tarqalishi (ya'ni, virus o'chog'iga bormagan shaxslar o'rtasida tarqalishi) holatlari qayd etildi.

**XULOSA.** Covid-19 infeksiyasi butun organizm tizimini misli ko'rilmagan holatga keltirishi mumkin. U organizmni immunitetini pasayishiga olib keladi. An'anaviy ravishda yuqumli kasalliklarning 70% i maxsus tekshirilib, laboratoriyalarda aniqlanadi COVID-19 pandemiyasi davrida bu hissa yanada yuqoriroq va 100%ga yaqin bo'ldi, chunki bemorni qabul qilish, izolyatsiya qilish yoki unga javob berish kabi qarorlar laboratoriya natijalari asosida qabul qilinadi.

Covid-19 bilan og'riqan bemorlarda limfopeniya va yuqori sitokin darajalari namoyon bo'ladi, bu kasallikning rivojlanishining asosiy belgilari hisoblanadi. Shuning uchun limfopeniyani yaxshilash va yallig'lanishni kamaytirish COVID-19 bilan kasallangan bemorlar uchun samarali terapevtik muoloja hisoblanadi. Kasallikdan himoyalanihning eng yaxshi usuli shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, kasallanish holati aniqlangan bemorlar bilan kontaktda bo'lmaslik, to'g'ri ovqatlanish qoidalariga amal qilish, doka niqoblardan foydalanish va COVID19 ga qarshi vaksinalardan birini olish tavsiya etiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Косимов И.А., Шаджалилова М.С.,
2. Шамансурова Ш.Ш. Клинико эпидемиологические
3. особенности и профилактика коронавирусной инфекции.
4. /Метод.пособие. -Ташкент.2020.-С.- 17.
5. Туйчиев Л.Н. ва хдм муаллиф.
6. Коронавирус инфекциясининг этиологияси, эпидемиологияси, клиник хусусиятлари, даволаш ва олдини олиш чора-тадбирлари. /Услубий кулланма.
7. Тошкент, 2020. 34 б.
8. Обзор нового коронавируса 2019 года
9. (COVID - 19), CDC, 1 февраля 2020 г.